

O‘QITUVCHI AMALIY FAOLIYATIDA KREATIVLIK

Akmal Sadixonov

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Tel: +998 90 533 49 95

Annotatsiya. Maqolada musiqiy amaliy mashg‘ulotlarda o‘qituvchilarni kreativ kompetensiyalarini takomillashtirishga qaratilgan yutuqlarning amaliyotga joriy etilishi, amaliy darslar jarayoniga kreativ yondashish orqali yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, ta‘lim sifatini baholashni xalqaro standartlarga moslashtirish, ta‘lim tizimini modernizatsiyalash borasida yuqori natijalarga erishishning samarali usullari va natijalari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, kompetensiya, o‘quv modeli, tadqiqot usullari, didaktik maqsadlar, badiiy-estetik bilim, kreativ ko‘nikma.

Zamonaviy jamiyatda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalaridagi o‘zgarishlar tufayli ta‘lim tizimida sezilarli yangilanish mavjud. Shu bilan birga, talabning musiqiy madaniyatini rivojlantirishni shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylanadi, chunki u o‘zining estetik, kognitiv va tarbiyaviy rolini bajarishga qodir, shuningdek, keyingi hayotda shaxsning madaniy o‘zini o‘zi takomillashuvining kaliti, asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda, musiqa madaniyati darslarini ilmiy-metodik jihatdan har tomonlama takomillashtirib, zamon talabiga mos ravishda olib borish, musiqa o‘qituvchisi oldiga qo‘yilgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. O‘qituvchilarga quyidagi vazifalarni amalga oshirish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan:

1. O‘quvchining musiqiy uquvi va badiiy didini o‘stirish.
2. Musiqani ijro etish tajribasini boyitish.
3. Musiqa tarbiyasida yangi uslub va vositalarni izlash orqali kreativ izlanish.
4. Musiqiy asarlarda hayot va san‘at o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ifodalash.
5. Ijrochilik mahoratini o‘stirish

Biz musiqa orqali inson tarbiyasiga ta‘sir etishimiz va uning qalbiga yo‘l topishimiz mumkin. Musiqa haqida har qancha da‘vatlar muhim nazariy fikrlar bildirilmasin agar ularni jamiyat ongiga singdirish uchun doimiy ish olib bormasak bu boradagi faoliyatimizni har tomonlama puxta o‘ylagan tizimli ravishda

tashkil etmasak tabiiyki, biz ko‘zlagan maqsadga erisholmaymiz. Shuning uchun ham musiqa fani o‘qituvchilari birinchi navbatda o‘z kasbida bilimli mutaxassis bo‘lishlari va musiqa orqali bir insonni tarbiyalash mumkin ekanligini tushinishlari lozim. Zero, musiqa insonni bevosita ma‘naviyatiga ta‘sir etuvchi vositadir.

Shu o‘rinda kreativ tushinchasi mazmun mohiyati haqida to‘xtalib o‘tishni joiz deb bildik.

Kreativlik (lotincha “create”- yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor)-ya‘ni individning yangi g‘oyalar ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida ijodkorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma‘nosini ifodalaydi. Demak, kreativlik deganda eng avvalo u yoki bu sohada yangilik yaratish, yangi g‘oyalar ustida ijod qilish tushiniladi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, xis-tuyg‘ularida, muloqotida va muayyan faoliyat turida namoyon buladi. Inson tafakkurida dastlab kreativ g‘oya vujudga keladi, bu g‘oyani xis-tuyg‘ularida, muloqotida mujassam etadi va ushbu kreativ g‘oyani muayyan faoliyat turida qo‘llab ko‘radi. Kreativlik shaxsni yaxlit xolda yoki uning muayyan hususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Kreativlik- bu so‘zni sodda tilda tushintiradigan bo‘lsak, yaratuvchanlik, ijodkorlik degan ma‘nolarni anglatadi. Ya‘ni bu bir xillikdan qochish, nimagadir yangicha yondashish ko‘nikmasidir.

Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish, farazni tekshirish va o‘zgartirish, qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash, muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta‘sirchanlikni ifodalaydi.

“Kreativlik otasi” nomi bilan mashhur Pol Torrans to‘rtta kreativlik ko‘nikamsini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko‘nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin:

1. Ravonlik: Ko‘plab g‘oyalarni o‘ylab topish ko‘nikmasi, “ko‘p” degan so‘zga asoslanadi.
2. Moslashuvchanlik: Turli g‘oyalarni o‘ylab topish ko‘nikmasi “o‘zgartirish” degan so‘zga asoslanadi.
3. O‘ziga xoslik: Boshqalarga o‘xshamagan, ajralib turuvchi g‘oyani o‘ylab topish ko‘nikmasi.



4. Yaratuvchanlik: G‘oyalarni kengaytirish ko‘nikmasi “qo‘shish” degan so‘zga asoslanadi.

Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobilyati ma‘lum vaqt ichida izchil o‘qib o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takollashib, rivojlanib boradi. Xar qanday mutahassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobilyatlariga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda rivojlantirib boriladi.

Xo‘sh, biz uchun kreativlik nega kerak?

Kreativ insonlar har bir sohada, har bir bajaradigan ishida o‘zgalardan ajralib turadi. Chunki ular nafaqat o‘z ishlarini katta ishtiyoq va qiziqish bilan, balki hech kimning xayoliga kelmaydigan g‘oyalar orqali amalga oshirishadi. Shunday ekan kraetivlik muvaffaqiyatimiz kaliti desak adashmaymiz. Keling, siz bilan bu tushinchani o‘z sohangizga solishtirib ko‘ramiz. Kreativ- pedagog har tomonlama rivojlangan, har bir darsini qiziqarli o‘ta oladigan, yangi metodlar va texnikalardan xabardor va barcha o‘quvchilari uchun sevimli bo‘lgan mahoratli ustoz. Uning darslari g‘aroyib g‘oyalarga boy!

XXI asr kreativ o‘qituvchilari qanday bo‘lishi kerak?

Eng zamonaviy metodlardan xabardor bo‘lishi va amalda qo‘llay olishi kerak. Mahoratli pedagogning asl siri uning qanchalik ko‘p metod va texnikalarini bilishi, shuningdek ularni amalda qo‘llay olishi bilan bog‘liqdir. O‘z fanidan chuqur va puxta bilimga ega bo‘lishi kerak. Yaxshi bilimga ega bo‘lmagan o‘qituvchi, o‘quvchilarga sifatli bilim bera olmaydi. SHu sababli har bir ustoz o‘zini rivojlantirishdan to‘xtamasligi lozim. O‘quvchilar psixologiyasini tushuna olishi kerak. Har bir o‘quvchi ongida nimalar sodir bo‘layotganligi tushunish va turli metodlar orqali ularga ijobiy ta‘sir o‘tkaza olish haqiqiy mahoratli pedagogga xos.

Bugun biz o‘quvchilarimizni ma‘lum bir yo‘nalishlarda chegaralab qo‘yishligimiz ularni kreativ fikrlashdan uzoqlashib ketishiga sabab bo‘ladi. Biz ularni chegaradan chiqmasdan chegarasizlikka o‘rgatishimiz yani milliy mentalitetimizdan chiqib ketmagan xolda chegarasizlik natijasida kreativ fiklashga o‘rgatishimiz lozim.

O‘quvchilarni tezda darsga jalb etib, shu darsga moslashishni shakllantirib borishga ham e‘tibor qaratmoq lozim.



Buning uchun:

Darsning boshlanish qismida quvnoq, sho‘x, jozibali biror musiqa asari tinglash tavsiya etiladi. Bu tinglangan musiqa dars jarayonida o‘quvchilarda ko‘tarinkilik kayfiyati xosil qiladi. Eng muhimi darsning sifatli, qiziqarli o‘tishiga yordam beradi.

Kreativ o‘qituvchi o‘zida quyidagi ko‘nikmalarni mujassam eta olishi lozim:

1. Ko‘plab metodlarni bilishi va amalda qo‘llay olishi;
2. O‘quvchilarga energiya bera olish;
3. Fanga o‘quvchilarni mehr qo‘yishiga sababchi bo‘lish;
4. O‘z vaqtini to‘la nazorat qila olish;
5. Kuchli notiq bo‘lishi, ko‘pchilik oldida so‘zlay olishi;
6. Ilmiy rivojlanish, o‘z fanini mukammal bilishi;
7. Keng va har tomonlama fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi;
8. Attestatsiya yoki o‘quvchi fan olimpiadasida natija ko‘rsata olish;
9. O‘z shaxsiy metodlar jamlanmasiga ega bo‘lishi kerak.

O‘qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin: birinchi bosqichda tayyor metodik tavsiyanomalar tuzukkina ko‘chiriladi; ikkinchi bosqichda mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi; uchinchi bosqichda g‘oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to‘la ishlab chiqiladi; to‘rtinchi bosqichda esa o‘qitish va tarbiyalashning o‘z betakror konseptsiyasi va metodikasi yaratiladi.

Zamonaviy musiqa madaniyati darslarini badiiy-pedagogik asar deb hisoblash mumkin. Chunki uni o‘qituvchi o‘z individual ijodidan va tajribasidan kelib chiqqan holda yaratadi. Darsning kompozitsiyasi va dramaturgiyasi, uning badiiy–pedagogik g‘oyasi, maqsad va vazifalari, shakllari, metodik usullari va texnologiyalari ham o‘quvchilarda musiqaga, o‘quv materiallariga qiziqishni o‘stirish, ularga musiqa san‘ati va madaniyatining ma‘naviy mazmunini singdirish, zamonaviy musiqali ijodiy faoliyatni anglashi-bularning hammasi o‘qituvchining ijodiy yondashuvchanligining mahsuli hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘PQ-637-con Qonuni / “Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi”, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-con.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori / “Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi”, 29.06.2020 y., 06/20/5370/0975-con, 09.07.2020 y., 06/20/6021/1047-con, 28.09.2020 y., 06/20/6075/1330-con.
4. Халиков А.А. Олий таълим муассасасида бўлажак тингловчиларнинг педагогик маҳоратини ривожлантириш. пед. фанл. бўйича фалсафа доктори (PhD). дис. автореф. – Т.: 2018. – Б. 22
5. Muslimov N.A., Upazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Kasb ta‘limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyalari. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 160 b.
6. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik acoclari / – T.: Sano standart, 2015
7. Kirgizov, I., Kirgizov, I., Najmetdinova, M., & Atabayeva, S. (2022, February). THE GENESIS OF THE DEVELOPMENT OF MUSIC CULTURE. In *Archive of Conferences* (pp. 57-60).
8. Kirgizov, I., Imyaminovich, K. I., Nurmhammedjanov, A., Sotvoldievich, S. B., Mamasodikovna, N. M., & Juraevna, A. S. (2021). The Pleasure of Singing, Listening and Understanding Navoi. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 2410-2413.
9. Ergashev, A. (2022). MUSIC EDUCATION IN FOREIGN COUNTRIES. *Science and Innovation*, 1(7), 262-265.
10. Tursinovich, A. K., & Abdullayevich, A. E. (2022, June). MILLIY-AN‘ANAVIY MUSIQIY CHOLG‘U SOZLARINING TASNIFI. In *Archive of Conferences* (pp. 245-248).
11. Mannopov, S., Karimov, A., Ataboeva, S., Ergashev, A., & Usmanova, S. (2021). Development Of Symphonic Music in Uzbekistan. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 2(2), 53-56.

12. Karimov, A., Mamaziyaev, K., Kholikova, G., Ergashev, A., & Kirgizov, I. (2021). Symbol Of Instruments In State Performance Served In Uzbekistan. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
13. D Namozova, Z Astanova, M Egamberdiyev APPROACH TO THE USE OF THE LIVES AND WORKS OF BLIND MENTOR ARTISTS IN EDUCATING YOUNG PERFORMERS (ON THE EXAMPLE OF RASULQORI MAMADALIYEV) *Science and innovation 2 (B4)*, 149-151
14. Rustamov, I. (2022). DOYRA CHOLG‘USIDA IJROCHILIK MAHORATINI OSHIRISHDA QO‘LLANILADIGAN MASHQLAR MOHIYATI. *Science and innovation*, 1(B6), 456-460.
15. Нурмухамеджанов, А. (2022). ЁШЛАР ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШДА БЎШ ВАҚТДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 442-446.
16. Namozova, D. T. (2021). MUSIQA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI KREATIVLIK HAMDA ERKIN TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNI TASHKIL ETISH. *Scientific progress*, 2(2), 1313-1315.
17. Namozova, D. (2022). BO ‘LAJAK MUSIQA O ‘QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENTLIGINI MUSIQA TARIXI FANINI O ‘QITISH VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH. *Science and innovation*, 1(B6), 942-950.
18. Sultonov, A. (2022). MUSIQIY IDROKKA TA‘SIR ETUVCHI TRANSFORMATSION TENDENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 314-323.
19. Нурмухамеджанов, А., & Рустамов, И. (2022). ЁШЛАРНИ АХЛОҚИЙ, ЭСТЕТИК ТАРБИЯЛАШДА ЎЗБЕК ХАЛҚ ЧОЛҒУ АНСАМБЛЛАРИ ВА ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10-2), 276-282.
20. Shakirov, T. N. (2022). SUCCESSION IS THE MAIN PRINCIPLE OF DEVELOPMENT OF NATIONAL MUSIC CULTURE. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(06), 1-10.
21. Шокиров, Т. Н. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ МУСИҚА ИЛМИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 353-359.
22. Sadixanov А. ПОНЯТИЕ ЛИЧНОСТНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И КРЕАТИВНОСТИ УЧИТЕЛЯ МУЗЫКИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ "USA"

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL
ISSUES OF SCIENCE

23. Sadixanov A. MUSIQIY TA'LIMDA KOMPETATSION YONDASHUV. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 572-577.

24. Муродова, Д. (2023). BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA BADIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING TAJRIBASINOV ISHLARI NATIJALARI VA UNI SAMARADORLIK DARAJASI. *Наука и инновация*, 1(7), 134-136.

25. Муродова, Д. (2023). ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ. *Наука и инновации*, 2(В5), 426-430.

26. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O 'ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 485-489.

27. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.

28. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA " LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.

29. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4), 29-33

30. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 87-89.

31. Hojimatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 265-275.